

# JAMIYAT VA INSON MA'NAVIYATI TAKOMILIDA MILLIY MUSIQA SAN'ATINING O'RNI

*Qahramon Boboqulov,*

Jizzax Davlat pedagogika instituti

“Musiqqa ta’limi” kafedrası katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Tarixan xalqimiz madaniy hayotida musiqqa san’ati muhim o‘rin tutgan. Mazkur san’at xalqimizning madaniy qadriyatlari va urf-odatlaridan oziq olib, ma’naviy rivojlanishga erishishida muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

**Kalit so‘zlar:** madaniy hayot, musiqqa, musiqqa san’ati, madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, falsafa, ma’rifat, ma’naviyat, ma’naviy rivojlanish, ma’naviy meros.

Xalqimizning ma’naviy hayoti, madaniy turmush tarzi bilan bog‘liq jarayonlarda jamiyatimizda azaldan qo‘lga kiritilgan ulkan madaniy meros va boy ma’rifiy xazina muhim ahamiyatga egadir. Mazkur ulkan madaniy meros ko‘lamida musiqqa san’atimiz juda salmoqli o‘rin tutadi. Milliy yuksalish g‘oyasi bugungi kunda o‘z navbatida san’at va madaniyatimizni imizning hamma yo‘nalishlari va barcha sohalarini rivojlantirishda ijodiy yaratuvchanlik faoliyatini ilhomlantiradi, ijodiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirib, san’atni jamiyatda ustivor ahamiyatga ega bo‘lgan jarayon sifatida takomilga boshlaydi.

Yoshlar ma’naviy-ma’rifiy olamini barqaror ravishda mavjud bo‘lishi, uning ma’rifiy jihatdan doimiy takomillashib borishida jamiyatda belgilanadigan dasturiy vazifalar va olib boriladigan muhim ustivor chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyov o‘zining Oliy Majlisga murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “Jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit-qizlarimizning ma’naviy va ma’rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish – birinchi darajali ahamiyatga egadir. Shu bois, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan dasturiy g‘oya asosida, yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida

tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish – o‘ta sharaflı vazifadir”<sup>1</sup>.

Milliy musiqa shaxs va millatga xos xususiyatlarda, tabiiy muhit, urf-odatlar va o‘zaro munosabatlarda namoyon bo‘ladigan ijtimoiy-madaniy hodisa hisoblanadi. Musiqa san‘ati bir millat qadriyatlarini ikkinchi millat qadriyatlaridan ajratishda ham o‘ziga xos rol o‘ynaydi, buning asosida milliy o‘zlikni anglatadigan, unga o‘ziga xos sayqal beradigan ijtimoiy, madaniy, falsafiy, sotsiologik va psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgan voqelik sifatida maydonga chiqadi.

Musiqa san‘atini milliy hayot tarzining turli tomonlarini, ya‘ni milliy o‘ziga xoslik, madaniy meros, kundalik turmush tarzi, ona tili, shakllangan urf-odatlar, tarixiy an‘analar, geografik muhit, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasidagi amaliyot darajalarni aks ettiruvchi serqirra madaniy voqelik va ma‘naviy-ma‘rifiy jarayon sifatida ilmiy tadqiq etish lozim. Ilmiy adabiyotda keltirilishicha milliy san‘at, “U yoki bu etnos vakillarining odat tusini olgan xulq-atvor tarzi va tipik xatti-harakatlari ko‘rinishlarini belgilaydi hamda ularning sotsial-turmushi muhitiga, atrof voqelikka, o‘z etnik guruhi va boshqa etnik birliklarga munosabatida namoyon bo‘ladi”<sup>2</sup>.

Mamlakatimiz hududida ming yilliklar davomida sayqallanib kelayotgan milliy musiqa san‘ati, badiiy madaniyati, estetik qadriyatlari va mumtoz san‘atning barcha ko‘rinishlari inson va jamiyat ma‘naviy takomilining negizi bo‘lib kelgan. Mazkur ijtimoiy-madaniy voqeliklarning jamiyatda asrlar davomida rivojlanib borishi xalqning zamonaviy turmush tarzi, adabiyoti, san‘at va madaniyati rivojiga ham salmoqli ta‘sir eta borgan. Madaniy rivojlanish o‘z navbatida musiqa san‘atining taraqqiy etishiga ta‘sir ko‘rsatdi. A.Avloniyning ta‘kidlashicha, “Taraqqiy qilgan millatlarning hunar va san‘atlarining barchasi ilmi

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24 yanvar 2020 yil. [www.uza.uz](http://www.uza.uz).

<sup>2</sup> Qarang: Sadoxin A.P., Grushevitskaya T.G. Etnologiya. M., 2000. Str. 169.

va nazari ibrat soyasida namoyon o'lib, olamni munavvar va musaxxar qilmishlar"<sup>3</sup>.

Musiqqa san'ati inson dunyoga kelishidan boshlab, uning o'z tili, madaniyati va dunyoqarashini o'zlashtirib, milliy-ma'naviy muhitda tarbiyalanib, milliy urf-odatlar va qadriyatlar qurshovida kamolga yetishi, ma'lum ijtimoiy muhit asosida shakllanishiga asos bo'ladi. Musiqqa san'atini o'rganish nafaqat san'atshunoslar, madaniyatshunoslar va pedagoglarning, balki tarixchi, adabiyotshunos, psixolog, sotsiolog va faylasuf olimlarning ham tadqiqot ob'ekti bo'lib hisoblanmoqda.

Musiqqa san'ati o'zining jozibadorligi, serqirraligi teran va falsafiy mazmunga egaligi bilan ajralib turadi. Millat ma'naviyatining muhim bo'g'ini sifatida musiqqa san'ati jamiyatda o'zining funksiyasi va tegishli vazifalariga ham egadir. Ayniqsa, musiqiy madaniyatning ma'naviy hayotda o'ziga xos o'ringa egaligini e'tirof etish bilan birgalikda uning inson ruhiyati, yashash va yasharish bilan bog'liq tuyg'ulari, bugungi kundan rozilik va kelajakka teran nazar bilan qarash bilan bog'liq kayfiyatlarni vujudga keltirishda ham muhim amaliy funksiyalarni bajaradi.

Mamlakatimizda musiqqa san'ati namoyondalari va ijodkorlarning faoliyati va ijodiy ko'lamdagi hatti-harakatlari ham yangi O'zbekiston taraqqiyot tamoyillarini yaratishda musiqani o'rnini yuksaltirishda muhim dasturiy vazifalarni ham bajarmoqdalar. Shuningdek, musiqqa san'atining rivojlanishi jamiyat va inson ma'naviy takomilida salmoqli ahamiyat kasb etadi. Zero, "O'zbek xalqi o'zining chuqur tarixiy ildizlariga asoslangan milliy ma'naviyatiga egadir. Milliy ma'naviyat xalqimizning turmush tarzi, hayotiy tutumlari, dunyoqarashi va ruhiy-axloqiy olamini o'zida ifoda etadi"<sup>4</sup>.

Musiqqa san'ati insonda ma'naviy dunyoqarashni shakllantirish bir qator ijtimoiy vazifalarni hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqqa san'ati inson ma'naviy dunyoqarashini shakllanishida muhim o'rin tutib, tabiat

---

3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. -Toshkent, "O'qituvchi", 1992. -29.

4. A.Saitqosimov. Jamiyat barqarorligi va shaxs mas'uliyati. -Toshkent, Tafakkur, 2012. -B. 87

go‘zalliklari, inson hayot tarzi va ijtimoiy munosabatlarni inson dunyoqarashida in‘ikos etilishi, va bu orqali inson ruhiyatini ijobiy xususiyatlarini namoyon qilishiga turtki beradi. Shuning uchun milliy musiqa san‘ati inson va jamiyat hayotida, turmush tarzida, ijtimoiy munosabatlarda, mamlakatning madaniy rivojlanishida salmoqli o‘ringa ega bo‘lgan ijtimoiy-madaniy hodisa hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24 yanvar 2020 yil. [www.uza.uz](http://www.uza.uz).
2. Qarang: Sadoxin A.P., Grushevskaya T.G. Etnologiya. M., 2000. Str. 169.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –Toshkent, “O‘qituvchi”, 1992. -29.
4. A.Saitqosimov. Jamiyat barqarorligi va shaxs mas’uliyati. -Toshkent, Tafakkur, 2012. –B. 87.